



Raqs LAMMI



2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

USHBU SON SAN'ATSHUNOSLIK TA'LIM YO'NALISHI 3-KURS TALABALARI TOMONIDAN TAYYORLANDI.

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib Deyman Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo'lgani shudir.
O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir.
Ma'rifatdan ayri o'ynasa, kulsa,
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir.
O'zbek o'zligini anglasa bekam,
Uning “Barakalla” bo'lgani shudir.
Olamga “Navoiy nasliman” degan
Ovozi baralla bo'lgani shudir.

O'zbekiston xalq shoiri

Erkin Vohidovning

**“O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa...”
nomli she'ridan parcha**

O'ZBEK NAVOIYNI O'QIMAY QO'YSA...

Xalqning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk, ehtimolki, birlamchi boyligi bor. Bu – uning tili. Aynan til odamlar ruhini bir millat sifatida biriktiradi, ya'ni xalqni – xalq, millatni – millat qiladi. 1989-yil 21-oktyabr kuni “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan. Ulug' mutafakir shoirimiz hazrat Alisher Navoiyning o'zbek xalqi ma'naviy dunyosi, tilining shakllanib rivoj topishida xizmatlari katta bo'lgan.

Navoiyning asarlari orqali ona tilimizga bo'lgan mehr-muhabbatimiz oshdi. Bugun bizda ham chet tillarini o'rganishga zarur shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga, o'z ona tilini chuqur bilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda garchi davlat tili sifatida o'zbek tili ko'rsatilgan bo'lsa-da, boshqa millatlarning nafaqat tili, balki urf-odatlar ham alohida hurmat qilinadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, o'z tilini hurmat qilgan boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. O'zbek

tiliga davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi munosabati bilan O'zbekiston davlatxoreografiya akademiyasida “San'at nazariyasi va tarixi” kafedrası, “Ma'naviy hayot” jurnali hamda akademiya Yoshlar ittifoqi hamkorligida “Davlat tili — millat g'ururi, Ona tilim — Vatanim ruhi” mavzusida ifodali she'r o'qish tanlovi o'tkazildi. Unda Javaharlar Neru universiteti qoshidagi Fors tili va Markaziy Osiyo tadqiqotlar markazi rahbari, filologiya fanlari doktori, professor, boburshunos olim Axloq Ahmad Axan, Turkiya Respublikasi Nigde universiteti professori, filologiya fanlari doktori Mustafo Qo'rqmas, Shvet-siya yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Butunjahon Uyg'ur ijodkorlari uyushmasi raisi, taniqli shoir va tarjimon Abdushukur Muhammad ishtirok etishdi. Shuningdek tanlov doirasida taniqli shoir va tarjimon A'zam O'ktam tavalludining 65 yilligiga bag'ishlangan Qo'qon universitetida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bilan hamkorlikda chop etilgan “Global-lashuv sharoitida ona tili va adabiyotining

ijtimoiy ahamiyati va uni saqlash tamoyillari” nomli to'plamning taqdimoti bo'lib o'tdi.

Bu bayram har birimiz uchun aziz. Sababi o'zbek tili bizning o'zligimiz, tariximiz, dunyoqarashimiz va yuragimizdagi eng pok tuyg'ularimizning ifodasidir. Asrlar davomida xalqimiz u orqali o'z orzu-umidlarini, dard-u quvonchlarini, oriflik va ezgulik g'oyalarini avlod-dan-avlodga yetkazib kelgan.

Ushbu tadbir davomida shoir va tarjimon A'zam O'ktamning she'rlarini ifodali o'qish tanlovi bo'lib o'tdi. Uning doirasida ishtirokchilar o'qiyotgan she'rlarini tinglar ekanmiz, A'zam O'ktam o'zidan ko'plab go'zal she'rlar qoldirib ketganini guvohi bo'ldik. Uning she'rlari o'qilganda shoirning hayot paytidagi fayzli suhbatlari rostdan qayta tirildi. Yurakdagi sog'inch chanqog'i ana shu she'r buloqlaridan bahra oldi. Bu she'rlar kimnidir o'ziga qaratish uchun aytilgan emas. Yoki keskin gaplarni gapirib o'zini ko'rsatish uchun emas. Balki butun vujudga singgan, yurakning to'ridan samimiyat bilan chiqqan bir hazin ohangdir. Ma'lumki, bizning yurtimiz Movarounnahr – Turkiston butun dunyo she'riyatida o'ziga xos o'rin tutgan buyuk shoirlari bilan faxrlansa arziydigan, jahon xalqlari she'riyat xazinasiga o'zining oltin sahifalarini, oltin baytlarini boshini baland ko'targan holda taqdim etgan bir yurtidir.

Begzod Turmamatov,
“San'atshunoslik” ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi

Akademiyamizda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi munosabati bilan “Davlat tili – millat g'ururi, Ona tilim – Vatanim ruhi” nomli tadbir o'tkazildi. Anjuman avvalida yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik adabiyotshunoslar akademiyasi rahbariyati bilan qisqa uchrashuv o'tkazdi va muloqot davomida ular hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, shuningdek, o'zbek tilining boy tarixi va adabiy merosi xususida alohida ta'kidlashdi.

— A'zam O'ktam she'rlarida nafaqat go'zal obraz, balki chuqur falsafa, milliy g'urur va insonparvarlik hissi mujassam, — deydi Turkiyaning Nigde universiteti professori, filologiya fanlari doktori Mustafo Qo'rqmas. — Uning o'tkir qalami bilan yozilgan har bir misra o'zbek xalqining dardi, orzusi va yurak so'zi kabi yangraydi. Men bu hassos adib ijodi bo'yicha 870 sahifali ilmiy ish yozganman. A'zam O'ktam shunchaki shoir emas, o'zbek milliy ruhiyatining kuychisi, deb ta'kidladi.

— Shoirning ijodida sharq an'analari va zamonaviy adabiy qarashlar mohirlik bilan uyg'unlashtirilgan, — dedi Hindistonning Javoharlar Neru universiteti Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi rahbari, professor Ahmad Axloq Ahan. — Ayniqsa, so'zga ehtirom, ramziy tafakkur va lirik tuyg'u samimiyligi alohida o'rin tutadi. Men adibning bir necha she'rlarini hind va urdu tillariga tarjima qilganman. Fikrimcha, bu ijod hali ko'p tadqiq qilinishi, xalqaro adabiy maydonda kengroq tanilishi zarur.

Iroda Axmadova,
“San'atshunoslik” ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi



“TARAQQIY” YO’LI

Akademiyamizda yangi o’quv yili boshlandi, men 3-kurs bo’ldim. Bizlar uchun yana bir nechta yangi fanlar qo’shildi. “Jurnalstika asoslari” fani ham biz uchun yangi fanlardan bo’lib, jadidlarga oid mavzu ham o’tildi. Bir qancha jadidlarni bilarkanman-u lekin hech Ismoil Obidov haqida eshitmagan ekanman. Bu inson dunyoga mashhur rivojlangan mamlakatlarda bo’lmagan gazetani O’rta Osiyoga olib kirdi va Vatanimiz Toshkentda asos soldi. Shundan so’ng men Ismoil Obidov haqida ma’lumotlar to’plab, maqola yozishga qaror qildim. Chunki har bir kishi bu haqida bilishi kerak deb o’yladim.

1906-yilning 27-iyunidan Toshkentda “Taraqqiy” nomli gazeta chop etila boshlangan. “Taraqqiy” tom ma’nodagi milliy nashr edi. Uning noshiri va muharriri Ismoil Obidov toshkentlik jadidlar o’rtasida “Ismoil Taraqqiy” nomi bilan mashhur bo’lgan. U 1881-yilda Sharqiy Turkistonning G’ulja shahrida tatar savdogar oilasida tug’ilgan. 1890-yili otasining vafotidan so’ng, tog’asi Rashid Sulaymonov yordami bilan onasi bilan Qozonga ketadi. 1900-yili shu yerdagi bilim yurtida o’qiydi. Keyin Moskvaga borib, 1903-1905-yillarda Arxitektura-rassomlik institutida tahsil olgan. 1905-yil Birinchi rus inqilobidan keyin Turkistonga kelib, taraqqiyparvarlardan Munavvar qori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy yordamida Toshkentda 1906-yil 14-iyundan “Taraqqiy” gazetasini ishlab chiqishdi. Gazetaning birinchi sonidan chor Rossiya mustamlakachilik siyosatini fosh etib, maktab va madrasa ta’limini isloh qilish, yangi usul maktablarini ochib, dunyoviy fanlarni o’qitish kerakligini aytadi. “Taraqqiy” gazetasi haftasiga ikki marta chop etildi. Unda bo’lgan felyeton va boshqa materiallarda tanqidiy yo’nalish, fosh qilish ruhi kuchli bo’lgani uchun u o’sha davrning eng ommaviy nashriga aylangan va fikrlashga katta ta’sir ko’rsatgan. Bu nashrga o’sha davr matbuotining ilk tadqiqotchisi bo’lgan Ziyo Said “Jadidlarning fikr tarqatuvchisi, eng sevimli va to’ng’ich gazetasi” deb baho bergan edi. “Najot: Maslakda sabot, to’g’rilikka ijobat” gazeta shiori bo’lib, buning ma’nosi najot, ya’ni ozodlikka erishish yo’lini maslak — e’tiqodda mustahkam turish, to’g’rilikka amal qilish demakdir. Gazeta o’z sahifalarida qoloqlik va jaholatga, zulm va zalolatga, shu jumladan, mustamlakachilik tartiblariga qarshi kurash e’lon qildi. Ijtimoiy hayot masalalarini dadil ko’tarib chiqqan bu nashr sahifalaridagi materiallarda tanqidiy ruh, fosh etish yo’nalishi kuchli edi. Gazetaning birinchi sonida e’lon qilingan bosh maqolaga:

“Biz — musulmonlarni hurriyatda haqlari bormi? Yo’q! Qarindoshlar, yuz marta yo’q!” degan sarlavha berilib unda chor Rossiya hukumatinin xalqqa erkinliklar va’da qilgan Manifesti Turkiston xalqlariga hech qanday haq-huquq bermagani, hamon milliy va siyosiy zulm-istibdod hukm surib kelayotgani bayon qilinadi. “Hozirda ijtimoiy kalom, matbuot uchun berilgan hurriyatlar to’shak ustida, og’ziga suv tomizilib turilgan og’ir xastadek ekanini, tilsiz va ko’r tabiblar ham tasdiq eturlar. Bu kabi zaif va lanj hurriyatlarga xalqimiz hamon rozi bo’lmay kurashib, tortishib, hurriyat, ya’ni ozodlik va shodlik bayramlarini umri boqiy odamlarga ko’rsaturlar”. Ko’rinib turibdiki, bu o’rinda ijtimoiy-hajviy tanqidning keskin, zaharxanda uslubidan foydalanilgan. Ijtimoiy hayotning taraqqiyot qonunlarini to’g’ri tushungan “taraqqiy”chilar jamiyat-

dagi jabr-zulmning har qanday ko’rinishlarini dalillik bilan fosh etdilar. Gazetaning 17-sonida bosilgan bosh maqolada chor Rossiya hukumati mirshablarning haddan oshgan zulmlari, ular hatto ko’chada o’z ishi bilan yurgan odamlarni ham ushlab kaltaklashlari, qahr-g’azab bilan qoralandi. “Ma’murlar” degan maqolada esa hukumat tomonidan tayinlangan amaldorlarning adolat qilmasliklari, oddiy xalqni mensimasliklari tanqid qilinadi. “Taraqqiy”ning muharriri va asosiy muallifi bo’lgan Ismoil Obidov qalamiga mansub hajviy va felyetonlarda yuqorida aytganimizdek zaharxandalik kinoya uslubi qo’llanilgan bo’lsa, o’zbek jadid matbuotining atoqli namoyondasi Munavvar qori Abdurashidxon o’g’lining ushbu gazetada bosilgan felyetonlarida yoritilgan mavzuga nisbatan ko’proq achinish, kuyinish ruhini sezamiz. Turgan gapki, “Taraqqiy”ning ijtimoiy dadilligi, uning sahifalaridagi hur fikrlar, felyeton va maqolalarning fosh qiluvchi achchiq tili chor Rossiya hukumati va mahalliy qora kuchlarga yoqmadi va gazeta dastlabki sonidan boshlab hukumat ta’qibi ostida bo’ldi, 19-sonidan so’ng u yopib tashlandi va muharriri qamoqqa olindi va u Kopolga joyga surgun qilindi. Ammo “Taraqqiy” boshlab bergan yo’l — zulm va istibdodni fosh etish hamda bundan achchiq va haqqoniy so’z — hajviy publitsistikadan keng foydalanish undan keyin dunyoni ko’rgan birin-ke-



“Xurshid”, “Shuhrat” va jadid matbuotining boshqa nashrlari tomonidan davom ettirildi. Ismoil Obidov surgundan qaytgach, Sharqiy Turkistonga ketadi. U yerdan Samarqandga kelib, 1910-yilgacha Rus-Xitoy bankida xizmat qiladi. Keyin Toshkentdagi “Rus-Poltava banki”ga ishga o’tadi. 1913-yilda bank yopilgach, turli kasaba tashkilotlarida xizmat qiladi. 1917-yil fevral inqilobidan so’ng o’lkadagi milliy istiqlolchilik harakati-da ishtirok etadi. I.Obidov 1918-yil boshlarida Turkiston Avtonom Sovet Jumhuriyatining ichki vaziri o’rinbosari bo’lib ishladi. 1920-yilda Moskvaga ketib, u yerda 1923-yilgacha bo’ldi, keyin Toshkentga qaytib, turli tashkilot savdo boshqarmalarida xizmat qildi. Tarjima ishlari bilan shug’ul lanib, Abdulla Qodiriyning “Obid ketmon” qissasini ruschaga tarjima qildi. Mahalliy maktablarda rus tili va adabiyotidan dars bergan. 1938-yil 14-martda Kalinin tumani Keles stansiyasidagi maktabda hibsga olingan. 1938-yilda 5 yilga hukm qilinib, Krasnoyarsk o’lkasiga yuborilgan. Uning keyingi qismati noma’lum.



O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yilda “Taraqqiy” birinchi soni chiqqan 27-iyun sanasini o’zbek jurnalistlarining kasb bayrami — “Matbuot va ijtimoiy axborot manbalari kuni” sifatida nishonlash to’g’risida qaror qabul qildi. Shu yildan bu kun bayram sifatida nishonlanadi. XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatiga bugungi kunda ham biz uchun o’ziga xos ijtimoiy-ma’naviy yo’l ko’rsatuvchi bir yulduz sifatida qarash o’rinlidir. Bu harakatga o’sha davrning mashhur ziyolilari, mutafakkir arboblari bo’lgan Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo’ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalar bosh bo’ladilar.

Begzod Turmamatov,
“San’atshunoslik” ta’lim yo’nalishi
3-kurs talabasi

USTOZ — ZIYO BAXSH ETGAN HAYOT MINORASI



Har bir inson hayot yo’liga qadam qo’yganda, uni yo’naltiradigan, qo’lab-quvvatlaydigan, har bir to’siqda kuch beradigan yo’lboshchiga muhtoj bo’ladi. Bu yo’lboshchi — mehribon ustozdir. Ustoz — bu shunchaki dars beruvchi emas, balki hayotga yo’l ko’rsatgan, qalblarga nur sochgan va ezgulik urug’ini qadagan insondir. Har bir kishining hayotidagi eng muqaddas zotlardan biri bu ustoz bo’lishi bejiz emas. Savol tug’ilishi mumkin: “Ustoz kim?” Ustoz — ilm maskanining yuragi, tarbiyaning asosiy tayan-chi, ma’naviyat targ’ibotchisidir. U bola qalbiga bilim urug’ini qadab, unga hayot saboqlarini o’rgatadi, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarini singdiradi. Aynan ustozlar tufayli bugungi jamiyatimizda dono, tafakkuri teran va bilimli yoshlar kamol topmoqda. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy shunday degan: “Ustozlik martabasi — eng oliy martabadir. Chunki u — odamni odam qiluvchi kasb egasidir”. Bundan ko’rinib turibdiki, ustozga hurmat qadimiy qadriyatlarimizdandir. Sharq mutafakkirlari va donishmandlari doimo ustozni ota-onadan keyingi oliy o’rinda deb bilganlar.

Barchamizga ma’lumki, Imom al-Buxoriy hadisshunos olim bo’lgan. Buxoriy — islom olamining eng buyuk muhaddisi bo’lib, ustozga bo’lgan cheksiz ehtiromi bilan ham mashhur bo’lgan. U kishining ustozlariga bo’lgan hurmati va sadoqati bizga tarixdan ma’lum. Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy yoshligidan ilmga nihoyatda ishtiyoqmand bo’lgan. U 10 yoshga to’lgani-da Qur’onni yod olib, hadis ilmi bilan chuqur shug’ullana boshlagan. Yoshligidanoq u ilmni to’g’ridan-to’g’ri olimlardan olish kerakligini tushungan va ayniqsa, ustozga bo’lgan hurmatni ilmning asosiy sharti deb bilgan.

Rivoyat qilishlaricha, Imom Buxoriy bir kuni mashhur muhaddis — ustoz Is’hoq ibn Rohavayhning darslarida ishtirok etadi. Is’hoq ibn Rohavayh dars davomida aytadi: “Qaniydi, Rasullulloh sallallohu alayhi vasallamning sahih hadislarini to’plab, alohida bir kitobga jamlagan kishi bo’lsa edi!”. Ushbu so’zlar yosh Buxoriyning yuragiga o’tdek botadi. U ichida shunday niyat qiladi: “Men buni amalga oshiraman!” Bu shunchaki va’da emas edi. Bu — bir ustozning orzusi, qalbida yongan ilmiy tashnalik edi. Imom Buxoriy ustozining bu gaplarini ilhomidek qabul qiladi va butun umrini hadislarini to’plash, ularni sahih va zaiflariga ajratish, yillar davomida ishonchli roviylarni tekshirishga bag’ishladi. Natijada u dunyodagi eng mashhur hadis kitobini — “As-Sahih al-Buxoriy”ni yaratadi. Bu asar islom tarixidagi eng ishonchli hadislar to’plami sifatida tan olingan. Ammo bu kitobning zamirida faqat ilmiy izlanish emas, balki bir ustozning yuragidan chiqqan ilhom va shogirdning sadoqati mujassam. Ya’ni, ustoz qalbidan aytilgan ezgu tilak shogird yuragida joylashib, tarixiy asarlar, buyuk xizmatlar va ilmiy fidoiylikka sabab bo’ladi. Imom Buxoriy yuksak ilm egasi bo’lishlariga qaramay, har bir ustoz so’zini qadrlagan, uni rahmat deb bilgan. Unutmasligimiz kerakki, siz bugun kim bo’lishingizdan qat’iy nazar — o’qituvchi, muhandis, shifokor, advokat yoki olim — barchangizning hayotingizda bir vaqtlar “Alifbo”ni o’rgatgan, ilk bor “Siz uddaladingiz, barakalla!” deb quvontirgan kishi “Ustoz” bo’ladi. Har yili 1-oktyabr sanasi — “O’qituvchi va murabbiylar kuni” sifatida keng nishonlanadi. Ammo ustozga hurmat ko’rsatish faqat shu bir kun bilan chegaralanmasligi kerak. Ustoz oldida har doim kamtar va ehtiromli bo’lish — bu har bir kishining insoniy burchidir. Ustozga ta’zim qilish — faqat bir kunlik emas, balki butun umr davom etadigan ehtiromdir.

Bugun davr o’zgarmoqda. Ammo ustozlik o’zgarmas qadriyatdir. Texnologiyalar asrida ko’pchilik bilimni internet orqali olish mumkin deb o’ylaydi. Ha, bu imkoniyat bor ammo inson qalbiga ilhom, sabr, mehr, tarbiya singdirish — faqat ustozning qo’lidan keladigan buyuk ishdir. Ustoz shunchaki dars bermaydi — u tarbiyalaydi, anglatadi, yurakdan joy oladi. Ustoz — bizga yo’l ko’rsatgan, qalbimizga nur baxsh etgan, bizni inson qilgan buyuk shaxsdir. Zero, ustozga ta’zim — bu hayotga, kela-jakka ta’zimdir.

“Ustozlik martabasi — eng oliy martaba.”

Gulalas Qurbonova,
“San’atshunoslik” ta’lim yo’nalishi
2-kurs talabasi

ADABIYOT — TREND DAN TASHQARIMI?

Yoki yoshlar nega kitobdan uzoqlashdi?

“Ekranlar yorqin, ammo soʻzlar soʻnmoqda...” Bu satr zamon ruhini ifodalaydi. Bugungi yoshlar koʻzini telefondan uzmaydi lekin yuragidan soʻzni oʻtkaza olmayapti. XXI asr — raqamli asr. Har bir insonning hayoti “trend”, “view”, “like” va “scroll” atrofida aylanmoqda. Ammo shu jarayonda bir savol oʻrtaga chiqmoqda: “Adabiyot — trenddan tashqarimi?” nega yoshlar koʻproq TikTokdagi qisqa videolarga qiziqadi-yu, Oʻtkir Hoshimov, Fitrat, Choʻlpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari yoki jahon adabiyotining Shekspir, Tolstoy, Sidney Sheldon sahifalarini varaqlamaydi? Nega insonlar endi hikoyani oʻqimay, uni “eshitishga” odatlandi, degan savol bilan akademiyamiz oʻqituvchilaridan bugungi kun yoshlariga qanday kitob? Bu savollarni aniqlash maqsadida biz — Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Sanʼatshunoslik taʼlim yoʻnalishi 3-kurs talabalari akademiyaning professor-oʻqituvchilari oʻrtasida “Oxirgi marta oʻqigan adabiyotingiz va yoshlarga beradigan tavsiya kitob — va nima uchun?” mavzusida soʻrovnoma oʻtkazdik.

Kitob — ruhning sukunati
Nodira Alimjonova,
“Sanʼat nazariyasi va tarixi”
kafedrası dotsenti

— Men qogʻozdagi adabiyotlarni hush koʻraman. Chunki audio yoki video kitoblarda fikr boshqa tomonga ketib qoladi. Soʻnggi oʻqigan asarim — rus yozuvchisi Shitil Markning 19-asr oxiridagi ijtimoiy hayotni yoritgan romani. Bu asar orqali doʻstlik, vafodorlik, ishonch va xiyonat haqida chuqur oʻyladim. Asarni oʻz tilida oʻqish lozim. Tarjima asarlar asl ruhini yoʻqotadi. Shuning uchun yoshlar til oʻrganishsin, ona tili bilan cheklanib qolishmasin. Bu soʻzlar shunchaki tavsiya emas bu tajriba. Axir har bir til yangi dunyo, har bir asar yangi qalbdır.

Orzularni unutgan inson — yoʻlini yoʻqotadi
Oʻgʻiloy Zaxidova,
“Oʻzbek tili, ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası katta oʻqituvchisi

— Jahon adabiyotidan Sidney Sheldonning “Orzu qilib kutaman erta” asarini oʻqidim. Bu kitobni yoshlar uchun aynan motivatsion manba sifatida koʻrdim. Detektiv asarlar, hayotiy romanlar yoshlarning tafakkurini kengaytiradi. Ular hayotdagi qiyinchiliklarni yengish, oʻz yoʻlini topish, toʻgʻri qaror qabul qilishni oʻrgatadi. Oʻqish muhim ammo uqish undan-da, muhim. Chunki har bir kitobda hayotiy saboq bor.

Sheʼr — ruhning raqsi
Erkinoy Saitova
“Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrası dotsenti
— Soʻnggi paytlarda Marhabo Karimovning sheʼriy toʻplamlari bilan tanishdim. Men uchun sheʼr — sanʼatning oʻzga tili. Raqs oʻrgataman ammo sheʼr oʻqiganimda goʻyo ruhim raqsqa tushadi. Shuningdek, ustoz Tohir Malikning “Shaytanat” romanini oʻqib chiqdim. Asar hayotdagi haqiqat va yolgʻon, vijdon va jinoyat orasidagi nozik chiziqlarni eslatadi. Sheʼr oʻqigan yosh oʻzini tushuna boshlaydi. Oʻqimagan esa dardini ichida saqlaydi. Bu soʻzlar yoshlar qalbıga yoʻl topuvchi samimiy murojaatdır.

Susana Useinova,
“Xoreografiya jamoalari rahbari”
kafedrası oʻqituvchisi

— “Paradoz shimpanze” nomli psixologik asarnı tavsiya etaman. Talabalar uchun ruhiy muvozanat juda muhim. Sahna sanʼati — bu nafaqat tanaviy, balki hissiy hissiyotlarnı uygʻotadi. Talabalarga maʼnaviy ozuqa sifatida “Kichkina shahzoda” asarini ham tavsiya etgan boʻlardim. Bu asar har yoshda har xil fikr beradi. U hayotga real koʻz bilan qarashni oʻrgatadi.

Matluba Murodova,
“Oʻzbek tili, ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası mudiri

— Yaqında Rustamjon Ummatovning “Boburshoh va Napoleon” asarini oʻqidim. Men talabalarimga har darsda yangilik, yangi bilim berishni xohlayman. Talabalar oʻrtasidagi tortishuvlar, muhokamalar, darslarimni qiziqarli oʻtishiga, adabiyotga qiziqish uygʻotishga olib keladi. Bu kitob tarixga nazar solgan holda, ikki buyuk shaxs — Boburshoh va Napoleonning oʻxshash jihatlari haqida. Dunyoning ikki chekkasidagi insonning oʻxshash strategiyasi, ularning hayot yoʻli, davlatni boshqarishdagi ahamiyat beradigan jihatlari juda koʻp. Bu ikki shoh dunyoning ikki chekkasida yashagan boʻlsa ham, ularni birlashtirgan narsa — iroda, qatʼiyat va orzular edi.

Oʻtmishsiz kelajak boʻlmaydi
Mehriniso Xolmurodova,
“Xoreografiya sanʼati” fakulteti dekani

Men Said Ahmad, Oʻtkir Hoshimov, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon asarlarini sevib oʻqiymen. Bu yozuvchilar oʻz xalqining ruhiyatini yozgan. Ularnı oʻqimasdan turib, oʻzligimizni tushunish qiyin. Ustoz yoshlar oʻqiyotgan asar muallifining yoʻnalishi, davri va maqsadini bilishlari kerak. Shundagina oʻqilgan kitob insonni oʻzgartiradi. Kitobni oʻqish emas, his qilish muhim.

Ruhni oʻqitmasdan raqsni oʻrgatib boʻlmaydi!
Dilafuz Doʻshanova,
“Sanʼat nazariyasi va tarixi” kafedrası oʻqituvchisi

Yaqında Jenni Rouch va Stefani Berrijing “Xoreografiya asoslari” kitobini oʻqib chiqdim. Sanʼatning ildizi — ruhdadır. Ruhni esa kitob tarbiyalaydi. Shuningdek, stress va hissiy bosimlar davrida psixologik kitoblarning ahamiyati katta.

Ilmiy manba ham adabiyotdır
Madina Muhammedova,
“Sanʼat nazariyasi va tarixi” kafedrası katta oʻqituvchisi

Oʻqigan adabiyotlarim orasida Gavhar Rahimova, Lyubov Avdeyeva va Fotih Dumanning “Men” asari bor. Bu asar insonning ichki meni bilan kurashini ochadi. Talabalar oʻzini anglash uchun shunday asarlarnı oʻqishi kerak.

Bugungi yosh avlodni kuzatgan odam bir narsani tez ilgʻaydi: ular har doim band, ammo har doim boʻsh. Band — chunki telefonda, ijtimoiy tarmoqlarda, videolarda, boʻsh — chunki ruhiy dunyosi, fikriy manbai sust. Adabiyot esa — ruhni toʻldiruvchi manba. U insonni tinchlantiradi, oʻylantiradi va fikrlashga undaydi. “Trend” boʻlish uchun qisqalik, soddalik, kulgi va tez taʼsir kerak.

Kitob esa sabr, izlanish va tafakkur talab qiladi. Shu bois, bugungi zamon bilan adabiyot oʻrtasida tushunmovchilik paydo boʻlgan: biri “tezlik”, ikkinchisi “tinchlik” istaydi. Shuning uchun adabiyot — trenddan emas, trend tezligidan tashqarida. Hammaning qoʻlida telefon, har bir daqiqada yangi post, yangi video, yangi kontent. Buning natijasida esa oʻqish odati sekinlik bilan orqaga surildi. Yoshlar koʻrishni, tasavvur qilishdan oson deb bildi. Raqamli kontent — tayyor tasvir, tayyor his, tayyor fikr. Kitob esa har safar sizdan yangi his, yangi tasvir, yangi oʻy talab qiladi. Psixologlarning fikricha, ekran orqali axborot qabul qilayotgan inson miyasi passiv holatda ishlaydi. Kitob oʻqiyotgan inson esa fikrni qayta ishlaydi. Shu sababli, oʻqimaydigan yoshda fikr refleksi sustlashadi.

Soʻrovnoma jarayonida oʻqituvchilarning kuzatuvlari asosida quyidagi omillar aniqlandi:

1. Tezkor axborot oqimi — Yoshlar koʻp maʼlumotni qisqa shaklda olishga oʻrgangan. Shu bois ular uzun matnnı oʻqishga sabr qilolmaydi.
2. Ijtimoiy tarmoqlardagi taʼsir — Mashhurlik va “trend” oʻqish emas, balki koʻrinish bilan oʻlchanmoqda.
3. Motivatsiya yoʻqligi — Oʻqish orqali hayotini oʻzgartirgan namunalar kam koʻrsatilmoqda.
4. Raqamli asrning tili — Yoshlar emodzi, qisqartmalar va “chat tili” bilan yashamoqda, bu esa adabiy nutqdan uzoqlashtiradi.
5. Oʻqitish uslublarining yangilanmaganligi — Baʼzan darsliklardagi adabiyotlar oʻquvchilar ruhiyatiga mos boʻlmasiligi, shu bois qiziqish yoʻqoladi.

Soʻrovnoma yakunida har bir oʻqituvchilarining fikrida bitta umumiy xulosa bor: Oʻqimagan avlod — yoʻqsiz avlod emas, ammo yoʻqotilgan avlod. Adabiyot — oʻzingni topishning eng toʻgʻri yoʻli. Kitobga muhabbatni qaytarish uchun nima qilish kerak?

1. Kitobni “majburiyat” emas, “madaniyat” sifatida targʻib etish.
2. Teatr va kitobni bogʻlash.
3. Kitobxonlik klubini yaratish.

Oʻtkazilgan soʻrovnomadın shunday xulosaga keldik-ki, adabiyot trenddan tashqarida emas, balki trendning ortida qolgan qadriyatdır. Zamon oʻtadi, texnologiya oʻzgaradi lekin soʻzning kuchi oʻzgarmaydi. Yoshlar uchun adabiyot bu — oʻzligini topish, his qilish, orzu qilish maktabi. Shuning uchun bugun biz, sanʼatshunos talabalar, ustozlar bilan birgalikda aytamiz: “Raqs tanani harakatga keltiradi, lekin kitob ruhni uygʻotadi.” Shu ruh uygʻonmaguncha, sanʼat ham, jamiyat ham toʻliq uygʻonmaydi!



MENI MENDA DEMANG MENDA EMASMAN BIR MEN BORDIR MENDA MENDAN ICHKARI

U uyg'ondi. Yoki, ehtimol, uyg'onish kerak ekanligini esladi. Vujud hali qimirlamas, lekin sezgi allaqachon harakatda edi. Atrofdagi hech narsa yo'q, biroq hech narsa hammasidan ko'p edi. Na yorug'lik, na zulmat, na tovush, na sukunat. Faqat mavjudlikning o'zi. Qattiq ham emas, suyuq ham emas. To'xtagan, lekin o'lib qolmagan. U joyga nom berilmagan. Uning shakli ham, chegarasi ham yo'q. Ammo har bir inson, o'zining ichki jimjiligidagi bu joyni sezadi. Bu yurak urishidan oldinroq, bu so'zlardan ilgari yashagan til. Bu yerda hech kim yashamaydi. Lekin barcha shu yerdan kelgan.

Ko'zlar ochilmagan. Biroq ko'rish boshlandi. Tashqariga emas ichkariga. Ko'zlar emas, yodlar ko'radi. Sukut bu yerda til o'rnida. Har bir jimlikda butun bir tarix yotadi. Har bir nafasda million yillik og'riq va shunchalik chuqur tinchlik. Bu yerga kelgan har bir inson o'zidan qochadi, ammo aynan shu yerda o'zini topadi. Bu joy aslida so'lim bir maskan. Undan chiqib ketish mumkin, lekin u sening ichingdan chiqmaydi. U yurmaydi. Harakat so'z talab qiladi, u esa sukunatdan yasalgan. Shu sabab u oqadi. Ammo suv emas. U eslash.

Bu joyda vaqt yo'q. Unda tartib yo'q, lekin ma'no bor. U shu qadar o'zgachaki, go'yoki begonadek. Lekin uni taniysan. Ammo unutilib qo'ygansan.

Nimadir chaqirmoqda. Bu ovoz emas. Bu ichki harakat. Ichki yurish. Tashqariga emas, chuqurlikka. Har bir qadam bilan tanish bo'lmagan joyga, o'zinga yanada yaqinroq kelasan. U yerda so'zlar yo'q, ammo har bir sezgi so'z o'rnida.

Bir narsa suzib o'tadi. Uning yuzida hech narsa bo'lmaydi. Ammo u senga o'zingni ko'rsatadi. Faqat sen unga tik qarashga jur'at qilishing kerak. Agar qarasang yuzing parchalanadi. Chunki sening yuzing tasavvurdan iborat edi.

U joyda hamma narsa timsollarga aylangan. Suv his. Havo orzu. Yomg'ir eslash. Yer kechirim. Daraxtlar vaqt. Har bir narsa boshqa bir narsa.

Va sen... sen aslida hech narsa emassan, lekin barini his qilasan. Shunda sen anglayasan: borliq bu eslayotgan ruhdur.

Bo'shliq sukunatda jim edi. U yerdagi har bir jimlik qadim, ammo hali aytilmagan so'z edi. U ichkariga cho'kkan sayin, sukut zichlashdi. Tovushlar emas, tuyg'ular sas

chiqarmay siljiy boshladi. Ko'z oldida ko'zgu. U silliq emas, egri. U oynaday ham, suvday ham

emas. Balki u yurakning ichi. Ko'zgu esa hech qachon yolg'on so'zlamaydi. U faqat haqiqatni qaytaradi. Ko'zguda yuz ko'rinmasdi. Faqat yoriqlar. Faqat izlar. Faqat unutilgan o'rkachlar. Ko'zguda bolalik yondi. Qisqa, lo'ndagina chaqnash. Eshik ortidagi kulgu. Keyin keskin sado. Qichqiriq. Keyin sukunat. Yana bir yoriq g'azab.

Kimgadir aytilgan, lekin aslidagi o'zinga qaratilgan g'azab. So'zlar yurakni emas, devorni tilgan. Ammo yurak ichida devor yo'q edi. U yoriqni yutgan. Ko'zgu silkinmadi. Faqat ko'rsatdi. Faqat so'zsiz: "Mana, sen," dedi. Yig'lab yubormadi u. Faqat jim turdi. Chunki ba'zan jimlik yig'idan kuchliroq bo'ladi. Ko'zguda ko'ngilning egilishi ko'rinadi. O'sha egilish yillar davomida so'zga aylanmagan yurak og'rig'i. Seni kimdir unutilgan deb bo'lgan kun. Sen esa unutilishga harakat qilgan tun. Ammo unutilish bu yo'qotish emas. Unutilish ichkariga yashirish. Va ko'zgu yashirin joylarni biladi. U yerda o'zingdan bexabar o'zliging saqlangan. Bir marta "kechirdim" degan so'zing aslida qabul

emas, faqat ko'z yumish bo'lgan. Ko'zguda ochilgan ko'z. Va u ko'zdan bir tomchi tushdi. U suv emasdi. U og'riqning shakli edi. U tomchi yerga tushmadi. Havoda osilib qoldi. Va asta nurga aylandi. U nurda ke-

chirilmaganlarning ohangi bor edi. Ko'zgu sinmadi. U esa... qarab turdi. To' ko'zgu ichidan bir soya siljiguncha. Bu soya so'zsiz edi. U senga o'xshardi. Lekin u sen emasdi.


U sening yig'lamagan ko'z yoshing, aytilmagan so'zing, qabul qilinmagan holating edi. U sening tushunilmagan "men"ing. Soya yaqinlashdi. Qo'llari yo'q. Tili yo'q. Ammo butun vujudi bilan senga shivirlaydi: "Men seni hech qachon tark etmaganman.

Sen meni tark etganding". Sukut muzga aylandi. Shivir zangga. Har bir his hayqiriqqa aylandi. Lekin ovozsiz. Va u paytda bir narsa yuz berdi. Ko'zgu yorildi. Ammo sinmadi. Yodlar uni parchaladi.

Og'riq yomon emas. Og'riq bu ichkari-dan chiqayotgan haqiqatdir. Og'riq bu es-

lash. Og'riq bu ko'zgudagi hayot.

Sabina Zakirova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi



SUV HIS. HAVO ORZU. YOMG'IR ESLASH. YER KECHIRIM. DA- RAXTLAR VAQT. HAR BIR NARSA BOSHQA BIR NARSA

O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI VAKANT O'RINLARGA TANLOV E'LON QILADI

1. "Xoreografiya jamo- alari rahbari" kafedra- si dotsenti (1 o'rin)

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimning shaxsiy varaqasi.
3. Ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqidagi diplom nusxalari.
4. Pasport nusxasi.
5. Ilmiy ishlar ro'yxati (ilmiy kotib tomonidan tasdiqlangan holda).
6. Malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.
7. Mehnat daftarchasining nusxasi.

*Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.
Telefonlar: 71 215-55-94, 71 215-56-98

TAHRIR HAY'ATI

Nozim Qosimov
Hulkar Hamroyeva
Matluba Murodova
Po'lat Tashkenbayev
Dildora Qosimova
Shahzoda Xudonazarova
Gulasal Usmonova

BOSH MUHARRIR:

Shuxrat TOXTASINOV

BIZNING MANZIL:

100031, Toshkent shahri,
Yakkasaroy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko'chasi,
103-uy.

NASHR UCHUN MAS'UL

Durdona Ubaydullayeva

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145
Ofset usulida bosildi.
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:
18:00
Bosishga topshirildi: 21:25
Adadi: 200
Bahosi kelishgan narxda.

SAHIFALOVCHI:

Muhammadxon YUSUPOV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

"NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent viloyati,
O'rta Chirchiq tumani,
"Mash'al" mahallasi,
Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Buyurtma: 918

Hajmi 1 bosma taboq.